

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

KAMALOVA GAVHAR AKBAROVNA

**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK
TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENTLILIGINI
RIVOJLANTIRISH**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctoral of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Kamalova Gavxar Akbarovna

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish 3

Камалова Гавхар Акбаровна

Развитие профессиональной компетентности будущих педагогов на основе интегративного подхода 23

Kamalova Gavhar Akbarovna

Development of professional competence of future educators based on an integrative approach 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 49

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

KAMALOVA GAVHAR AKBAROVNA

**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK
TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENTLILIGINI
RIVOJLANTIRISH**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped6880 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori dissertatsiyasi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tdpu.uz) da hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abduraximova Dilfuza Aliyevna
pedagogika fanlari doktori, (DSc) professor

Erkaboyeva Nigora Shermatovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot


Namangan davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «5» dekabr soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 64-uy, Tel.: (+99871) 150-01-27; faks: (+99871) 150-01-27; E-xat: mtm-malaka.oshirish@exat.uz.

Dissertatsiya bilan Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (56 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 64-uy, Tel.: (+99871) 150-01-27; faks: (+99871) 150-01-27; E-xat: mtm-malaka.oshirish@exat.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «21» noyabr kuni tarqatildi.
(2024 yil « » dagi - raqamli reyestr bayonnomasi).



 - **N.X. Raxmankulova**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, p.f.d., professor

 **Sh.E. Ne'matov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, p.f.n., dotsent

 **K.D. Riskulova**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d.
(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon hamjamiyatida yuz berayotgan globallashuv jarayonlari, ilm-fanning rivojlanishi, iqtisodiy, mafkuraviy, ijtimoiy sohalaridagi o'zgarishlar, shuningdek, jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq dolzarb muammolar bo'lajak tarbiyachilarda tezkor va to'g'ri qarorlar qabul qilish, tanqidiy tafakkurni shakllantirish zaruriyatini yuzaga chiqarmoqda. Jahon ta'lim forumida (Word Education Forum 2015, Incheon, Republic of Korea) tasdiqlangan "2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasi" (Incheon Declaration/Education 2030)da sifatli ta'lim olish va bo'lajak kadrlarning kasbiy mahoratlarini oshirish dolzarb vazifa sifatida belgilanib, oliy ta'lim jarayonini davr talablari darajasida tashkil qilish, xususan, maktabgacha ta'lim tizimini malakali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida tarbiyachilarning zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish doirasida ko'plab yirik loyihalarni amaliyotga tatbiq etish va ta'lim tizimida integrativ yondashuv vositasida talabalarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish muhim masala sanaladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimida kadrlarning kasbiy malakalarini uzluksiz rivojlantirishning innovatsion usul, metod va texnologiyalarini intensiv tatbiq qilish, kasbiy kompetensiyalarni baholash bo'yicha xorijiy tajribalarni qo'llash dolzarblashmoqda.

Dunyoda kadrlar raqobatbardoshligini oshirish, maktabgacha ta'lim pedagoglari uchun amaliy-metodik yo'naltirilgan kasbiy rivojlanish muhitini yaratish va zamonaviy talablarga yo'naltirilgan didaktik ta'minotni modernizatsiyalash bo'yicha AQSh, Rossiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya, Norvegiya, Finlyandiya, Gretsiya kabi davlatlarda ta'lim jarayonlarini modellashtirish, loyihalashtirish, maktabgacha ta'lim tizimi pedagoglarini integrativ yondashuvlar asosida o'quv materiallarini o'zlashtirishga nisbatan motivatsiyasini oshirish hamda ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi samaradorligini aniqlash indikatorlari didaktik faoliyat shakllarini identiv maqsadlar bilan ichki integrallashuv jarayonlarida muayyan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan o'quv faoliyatini boshqarish, mashg'ulotlarni uyushtirish va o'tkazish jarayoni uyg'unligini ta'minlash shartlariga asosan takomillashtirish muhim vazifa etib belgilangan. Yevropa davlatlari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur tajribasida tizimli-integratsion yondashuv asosida ta'lim mazmunini takomillashtirishning asosiy sharti sifatida ta'lim oluvchilarda XXI asr ko'nikmalarini tarkib toptirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda strategik maqsadlardan kelib chiqib, yoshlarni ochiq va sifatli ta'limga jalb etish, ularning kasbiy shakllanishi uchun kerakli didaktik muhitni ta'minlash, maktabgacha ta'limning zamonbop imidjini shakllantirishda yuqori malakali kadrlar ishtirokini kuchaytirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 39-maqsadida maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, xodimlarning professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib

borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish belgilangan. Shu boisdan oliy ta'limda integrativ yondashuvning nazariy va metodik jihatlarini takomillashtirish orqali bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog kadrlar salohiyatini kasbiy bilim, ko'nikma, malakalar bilan tizimli qurollantiruvchi mutaxassislik fanlarini integratsiyallashgan holda chuqurlashtirilgan tarzda o'rgatish orqali oshirish hamda ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori 2022-yil 28-yanvardagi qarorlari, PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy shakllantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda o'qitishning innovatsion yondashuvlarini amaliyotga joriy etishning turli aspektlari masalalari bo'yicha olimlardan D.Arziqulova, R.Djurayev, Z.Azizova, N.Abdullayeva, M.Maxkamova, N.Egamberdiyeva, Z.Qalandarova, Z.Qodirova, N.Qodirovalar oliy ta'lim tizimida pedagoglar kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish masalalari bo'yicha A.Abduqodirov, U.Begimkulov, A.Turg'unovlar, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari bo'yicha G.Ibragimova, N.Muslimov, O'.Tolipov, B.Raximovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlari S.Shukshina, Ye.Soloveva, M.Kovardakova, N.Veraksa, P.Vetchinkina, V.Danilov, Z.Gracheva, E.Gerosimova, A.M.Leushina, V.I.Loginova, T.A.Museyibova, Z.E.Lebedovalarlarning kasbiy kompetentlikni tizimli tahlil etish muammolari bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

Xorijiy mamlakatlar olimlari Andreas Scheleicher, K.Duncker, M.Glozier, Paulo Santiago bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik kompetentligini tizimli tahlil etish metodlari va texnologiyalarini yoritib o'tganlar, Olsson Thomas, Vincent Greney,

W.John, F.Lorenzo, D. Coyle, D.Marsh, A.Ruelenslar esa, bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik kompetentligini tizimli tahlil etish metodlari va texnologiyalarini yoritib o'tganlar.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Bo'lajak tarbiyachilar tayyorlashda ta'lim-tarbiya muammolari va istiqbollari" mavzusidagi ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvdan foydalanishning metodik imkoniyatlarini aniqlash;

bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning rivojlanganligini baholash mezonlarini aniqlash;

talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvdan foydalanish modelini takomillashtirish;

talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvdan foydalanishning didaktik ta'minotini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba - sinov ishlariga TDPU, Termiz DU, Qo'qon davlat pedagogika institutining 345 nafar talabalari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, shakl, usul va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik manbalarni o'rganish va qiyosiy tahlil qilish, anketa, suhbat, intervyu, pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvdan foydalanishning metodik imkoniyatlari talabalar akademik faoliyatini boshqarishning identiv maqsadlari bilan amaliy yo'naltirilgan didaktik topshiriqlarning integrallashuvini barqaror faollik muhitida ta'minlashga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning rivojlanganligini baholash mezonlari talabalarining o'quv natijalarini tashxislashga qaratilgan didaktik topshiriqlarning integrativ shakllaridan qisman-izlanishli va ijodiy jarayonda differensial darajalarda foydalanish asosida aniqlashtirilgan;

talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvdan foydalanish modeli ta'limiy muammolarni hamkorlikda yechishga motivatsiyalovchi individual yondashuv, kasbiy yo'nalganlik tamoyillarini faol tadqiqotchilik faoliyatiga tadrijiy uyg'unlashtirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik ta'minoti ijodiy va tahliliy fikrlash dinamikasini ta'minlash,

o‘zi-o‘zini tahlil qilish hamda individual qobiliyatlarni rivojlantirishda ijobiy psixologik muhit yaratish vektoriga intensiv ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik jihatlari o‘rganilib, kasbiy tayyorlash jarayonlarini baholashning diagnostik vositalari ishlab chiqilgan;

bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga doir maxsus kurs dasturi ishlab chiqilgan bo‘lib, kasbiy faoliyatning individual-uslubiy, doimiy tahlil qilish, intuitiv refleksiv shakllari aniqlangan;

integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli mazmunan, shaklan va faoliyatli uyg‘unlashuvni metodik ta‘minlashga qaratilgan blok tuzilmalar bilan takomillashtirilgan;

integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan trening mashg‘ulotlari majmui ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv, usullar ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga oid zamonaviy mulohazalar tahliliga asoslangan ilmiy xulosalar ko‘lamining kengaytirilganligi, kasbiy kompetentlikning rivojlanganligini baholash mezonlarining kasbiy-amaliy yo‘naltirilgan indikatorlar bilan boyitilganligi va ko‘rsatkichlar aniqlanganligi, bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonining didaktik jihatdan ta‘minlanganligi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda qo‘llaniluvchi samarali usul va vositalar aniqlanganligi, talabalarning kasbiy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishini ta‘minlashga qaratilgan hamda pedagogik kompetentlikni rivojlantirishning shakl va metodlarini modifikatsiyalanganligi, “Maktabgacha ta‘lim-tarbiyani tashkil etish” nomli o‘quv qo‘llanma nashr etilganligi hamda pedagogik jarayonga tatbiq etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Integrativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish asosida:

bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvdan foydalanishning metodik imkoniyatlari talabalar akademik faoliyatini boshqarishning identiv maqsadlari bilan amaliy yo‘naltirilgan didaktik topshiriqlarning integrallashuvini barqaror faollik muhitida ta‘minlashga ustuvorlik berishga oid tavsiyalar “Maktabgacha ta‘lim-tarbiyani tashkil etish” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2023-yil 30-maydagi 10/3.4-son qaroriga asosan berilgan 2023/164-U-4 raqamli nashr

ruxsatnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarining pedagogik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni takomillashtirilgan;

bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning rivojlanganligini baholash mezonlari talabalarning o'quv natijalarini tashxislashga qaratilgan didaktik topshiriqlarning integrativ shakllaridan qisman-izlanishli va ijodiy jarayonda differensial darajalarda foydalanishga metodik tavsiyalari O'zbekiston MTRK "O'zbekiston" teleradiokanalining "Assalom, O'zbekiston!", "Munosabat", "Xulosa o'zingizdan" kabi dasturlarida e'fira uzatilgan (02-15-745-sonli, 13.06.2024 yil). Natijada, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarining pedagogik bilim va ko'nikmalarini amaliyotga tatbiq etish mazmuni takomillashtirilgan.

talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvdan foydalanish modeli ta'limiy muammolarni hamkorlikda yechishga motivatsiyalovchi individual yondashuv, kasbiy yo'nalganlik tamoyillarini faol tadqiqotchilik faoliyatiga tadrijiy uyg'unlashtirishga ustuvorlik berishga oid xulosalar "Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2023-yil 30-maydagi 10/3.4-son qaroriga asosan berilgan 2023/164-U-4 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo'lajak mutaxassislarni o'z-o'zini namoyon qilish, boshqarish va baholash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta o'quv qo'llanma, 17 ta maqola, shundan, 4 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda, 2 ta respublika konferensiyalari, 6 tasi xorijiy konferensiya va 5 tasi xorijiy jurnallarda ilmiy maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekt va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Integrativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlanib, integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati, metodik imkoniyatlari tahlil qilingan. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish omil va tamoyillari aniqlashtirilgan.

Mamlakatimizda bo'lajak pedagogik kadrlarni kasbiy layoqati va eruditsiya, psixologik-pedagogik tayyorgarligi, tarbiyalanuvchilarning mustaqil fikrlash va yangi bilimlar olishga o'rgatish mahorati, zamonaviy va axborot texnologiyalarini egallanganlik, ilmiy-pedagogik ijodiyot metodologiyasini bilish darajasi yuqori bo'lgan malakali salohiyatga ega bo'lgan kadrlarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy zarurati hozirgi davr pedagogik ilmlar tasnifida aynan mutaxassis kompetensiyasi masalasi o'zining dolzarbligi bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda. Talabalarda kasbga bo'lgan qiziqishni oshirish bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashda integratsion yondashuv muhim o'rin egallaydi.

Ta'lim jarayonida integratsiya g'oyasi chexiyalik olim Ya.A.Komenskiy tomonidan ilgari surilgan. Integratsiya lotincha (tiklash, to'ldirish, qo'shish) – turli qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish jarayoni. Integratsion yondashuv bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog'liqligidir.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda shuni yodda tutish lozimki, fanning aniq sohalarida o'z pedagogik qobiliyatlarini namoyon etish ustida muntazam shug'ullanishlari uchun imkoniyatlar yaratish zarur. Mazkur jarayonda ta'lim oluvchilarning insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga ham e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Integratsiyaning ikki turi mavjud bo'lib, vertikal integratsiya – bir o'quv fani materialini birlashtirish, mavzularni murakkablik darajasiga ko'ra bir-biriga bog'lab o'rgatish, gorizontal integratsiya – mavzularni turli fanlar bilan bog'lab tushuntirishdan iborat.

Yuqorida keltirilgan yondashuv bevosita bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyani qay darajada shakllanganligi bilan namoyon bo'ladi.

Kompetensiya tushunchasining ijtimoiy mazmuni juda keng hisoblanadi. Shu o'rinda, "Kompetentlik" tushunchasining mohiyati haqida fikr yuritsak, bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardosh beradigan mutaxassis nazarda tutiladi. Mazkur tushuncha inglizcha "**competence**" so'zidan olingan bo'lib, lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishni namoyon etadi. U.Begimqulov fikricha "kompetensiyaviy yondashuv "musobaqalashmoq", "raqobatlashmoq", "bellashmoq" degan ma'nolarni anglatadi.

Tayanch kompetensiyalar inson qanday kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatda muaffaqiyatli kasbiy faoliyat yuritish uchun kerak bo'lgan layoqat, qobiliyat turlarini namoyon etishni taqozo etadi. Shu ma'noda tadqiqot zarurati har bir bo'lajak tarbiyachining kommunikativ, axborot bilan ishlash, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, maktabgacha ta'limga oid yangiliklardan xabardor bo'lish ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali metodik instrumentlarini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq etish bilan belgilanadi. Integrativ yondashuv ta'lim oluvchilarning o'quv-amaliy faoliyatida vaqtni tejash va bu tejalgan vaqtdan kasbiy yetilishga zarur axborotlar bilan ishlashga sarflash imkoniyatini beradi. Shuning uchun tadqiqot doirasida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvdan foydalanishning metodik imkoniyatlarini tizimli o'rganish hamda tahlil qilishga e'tibor qaratildi. Mazkur imkoniyatlar talabalar akademik faoliyatini boshqarishning identiv maqsadlari bilan amaliy yo'naltirilgan didaktik

topshiriqlarning integrallashuvini barqaror faollik muhitida ta'minlashga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirildi.

Ilmiy manbaa va adabiyotlar tahlili bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda quyidagi pedagogik shartlarga amal qilish lozimligini tasdiqladi:

bilim olishga ehtiyoj, intilish paydo bo'lishi uchun ularda o'zini-o'zi baholash va o'z-o'zini rivojlantirish motivini hosil qilish;

ta'lim natijalariga erishishda yaratuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lish; muloqotchanlik madaniyati va malakasini egallaganlik;

eng qulay samarali o'qitish usullari va vositalarini tanlay bilish; o'quv faoliyatini maqsadga muvofiq, ijodiy yondashgan holda tashkil etish;

tashabbuskorlik, mustaqillik va mas'uliyatlilik, har qanday muammoli vaziyatga tayyor turish va uni hal eta olish, mustaqil ravishda xulosa chiqarish imkoniyatini yaratish.

Ushbu bobda "integratsion yondashuv va kasbiy kompetentlik" tushunchalari tahlili asosida mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi.

Integratsion yondashuv – maktabgacha ta'limning ixtisoslik fanlari va mavzular o'rtasidagi o'zaro mantiqiy bog'liqlikni amalga oshirgan holda talabalarda mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish.

Kasbiy kompetentlik esa, pedagogik vaziyatlarda bilim, ko'nikma va malakalardan optimal, ta'limiy muammolarni hal etishda tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatishning samarali usul va texnologiyalari hamda vositalaridan mohirona foydalana olish imkoniyatini beruvchi kasbiy fazilatlar majmuidir.

Tadqiqotimizda talabalarning integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida qator tamoyillarga tayanildi.

Integrativlik tamoyili. Mavzular va o'quv materiallarining o'zaro bir-biriga uyg'unlashuvi ta'minlanadi. Pedagogik jarayonning barcha qismida talabalarning mustaqilligi va erkinligi birlashtiriladi.

Onglilik va faollik tamoyili. O'rganilayotgan mavzuga oid qonuniyat, tarif va dalillarni asosli egallash, xulosa va umumlashlarni chuqur, atroflicha fahmlash, ma'lumotlar yuzasidan bilimlarni izchil va to'g'ri bayon qila olish, bilimlarning ishonch va e'tiqodga aylanishi, o'zlashtirgan bilimlardan kelgusi faoliyatida mustaqil foydalana olish bilan ifodalanadi. Onglilik bilimlarni ongli o'zlashtirishga yo'nalgan jarayondir. Ta'limning maqsadi, hayot uchun zarurligini anglash, o'quv materiallarni ongli egallash va ularni o'zaro farqlay bilish, mavzu yuzasidan o'zi erishgan natijalarni baholay bilish namoyon bo'ladi. Faollik esa, o'z navbatida talabalarda mustahkamlikni tarbiyalash uchun asos bo'ladi. Talabaning olayotgan bilimini hayotda qo'llay olishlari uchun ta'lim jarayonida mustaqil fikrlash muhitini yaratish, ongli ravishda va faol qatnashib o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi.

Konsentrizm tamoyili. Yagona umumiy markazga yig'ilgan ta'lim mazmuni ta'lim nazariyasida o'quv predmetining muayyan kursdagi o'quv materialining alohida-alohida guruhlarga ajratgan holda berilishini ifodalaydi. Qaysiki, ushbu bloklar muayyan o'quv predmeti bo'yicha belgilab beriladigan o'quv materialining hajmini belgilaydi.

Ko'pvariantlilik tamoyili. Dars jarayonida o'quv topshiriqlari talabalarning o'zlashtirish darajasiga qarab shakllantiriladi. Amaliyot davomida bilimlar tatbiq

etilsa, uning muhim ekanligi aniq bo'ladi va kasbiy sifatlar ichida muhim o'rin tutadi. O'qituvchilar o'quv jarayoniga barqaror muhitni barpo etish masalasiga alohida e'tibor qaratilishi ta'kidlanadi. Talabalarning ichki holatini sezish qobiliyati, hamdardlik ko'rsatish kabi harakatlarga ahamiyat berish kerak. Pedagogik tomonidan bunday faoliyat to'g'ri yo'naltirilmasa, rivojlanayotgan shaxsda shu jumladan, ijodiylik namoyon bo'lishida muammolar paydo bo'ladi.

Tizimlilik tamoyili. Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarining umumiy aloqadorligini tasavvur qilish hamda o'zlashtirish, turli vazifalarni hal etishni ta'minlaydi. Talabalar zarur nazariy bilimlarni o'zlashtirishi va amaliy jihatdan mustahkamlashi, qulay va erkin sharoitda bilimlarni o'zlashtirish samarali kechishiga xizmat qiladi. Mazkur tamoyillar vositasida talabalarda kasbiy kompetentlik rivojlanadi, natijada, pedagogik faoliyatida murakkab jarayonlar, noaniq vazifalarni bajarish, kutilmagan vaziyatda oqilona yechim topish ko'nikmasiga ega bo'la olishni shakllantiradi. Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lajak tarbiyachi, o'z bilimlarini izchil boyitib boradi, yangi axborotlarni o'zlashtiradi, zamon talablarini chuqur anglaydi va o'z faoliyatini samarali tashkil qiladi. Integrativ yondashuvning muhim jihatlari shundaki, ta'lim talaba shaxsiga yo'naltiriladi. Talabalar ta'lim jarayonining asosiy g'oyasini tan oladi, o'qitish jarayoni nafaqat ta'lim oluvchilarni balki o'qituvchilarni ham rivojlantiradi. Shaxsga qaratilgan yondashuv faqatgina har bir talabani rivojlantirishni ko'zda tutmaydi, balki ijtimoiy va kasbiy sifatlar ham e'tiborga olinadi.

Fanlar va faoliyat umumlashtiriladi, bilimlarni o'zlashtirish obyektiv qonuniyatlarga asoslandi. O'zaro aloqadorlik va o'rganayotgan o'quv fani mavzularini boshqasi bilan uzviyligini aniqlay oladi, ijodkorlik va ta'limni birlashtiradi. Motiv va o'qish birinchi darajada ahamiyatga ega bo'ladi, ya'ni istak, mayl, xohish, ichki va tashqi omillar ta'sir qiladi. O'qitish tizimlashadi, talabalar ilmiy nazariyalar bog'liqligini anglaydi, faoliyatini tahlil qiladi.

O'quv material mazmuniga ko'ra integratsiya uchta daraja bilan farqlanadi.

1. O'quv fani ichidagi o'zaro bog'lanishlar natijasida yuzaga keladigan tushuncha, bilim, ko'nikma va malakalar (Nutq o'stirish fanining "Bolalar lug'atini boyitishda ta'limiy o'yinlar", "Bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishning mazmuni va mohiyati" kabi mustaqil ta'lim mavzularini o'zaro taqqoslash, ushbu mavzular o'rtasidagi muhim bog'liklik bolalarni o'yin orqali to'g'ri so'zlash va so'z boyligini oshirishga qaratiladi).

2. Fanlararo tushuncha, dalil va tamoyillarni sintez qilish, masalan nutq o'stirish va matematika fanlari mavzularini o'zaro bir-biriga bog'lash mumkin, masalan: "Nutq o'stirish metodikasi" fanida "O'yinchoq va predmetlarga qarab hikoya tuzish" va "Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish" o'quv modulida "Bolalarni predmetlarni turli belgilariga ko'ra guruhlashga o'rgatish" mavzulari talabalarga ikki mavzuni o'xshashligi, bir-biriga bog'liq jihatlarni tahlil qilish topshirig'i beriladi. Bunda predmetlarning rangi, shakli, tuzilishi haqida bolalarga so'zlab berish metodikasi yoritiladi.

3. O'quv fanining asosiy va qo'shimcha komponentlari mazmuni sintez qilinadi. Bilimlar tizimlashtiriladi, kichik qismlardan katta hajmdagi ma'lumotlar kengroq yoritiladi. Mazkur shaklning xususiyati shundaki, talabalar o'rganilayotgan muammolardan chetlamagan holda unga bog'liq bo'lgan bilimlarini chuqurroq o'rganadi va kengaytiradi. Talabalarda kasbiy kompetensiyaning shakllanishi samarali

kechadi. Chunki, ular o'quv fani mohiyatini to'raligicha tasavvur qiladi va ijodiy o'z-o'zini namoyish qiladi. Integrativ yondashuv o'quv jarayonining uchta asosiy holatini ifodalaydi, bular, mazmuni, metodikasi va tashkiliy jihati. Dars jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim, ma'suliyat va tashabbuskorlikni rivojlantirish, mustaqil tanlov qobiliyati, tashkilotchilik ko'nikmasi, boshqalar bilan muloqot va hamkorlik qila olish, hayotiy muammolarni ko'ra olish va yechim topish. Ta'lim tizimida integrativ yondashuvlarni qo'llash ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatida samaradorlikka erishish imkoniyatini kengaytiradi. Bunda integratsiyaning turli darajalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning tayanch komponentlarini ajratdik.

Kasbiy rivojlanishda sinergetik trayektoriya. Bunda talabalar uchun individual kasbiy rivojlanish xaritasi tuziladi. Kasbiy rivojlanish uchun zarur omillar bo'yicha har bir talabalar diagnostikadan o'tiladi. Bunda quyidagi yo'nalishlarda testlar va kasbiy keyslar taqdim etiladi.

Ixtisoslik modullariga oid bilim darajasini o'rganish. Buning uchun "Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi", "Nutq o'stirish metodikasi" modullari tanlab olindi. Har bir modul mazmuniga mos savollar integrativ tarzda tuzildi va talabalarga qog'ozli variantlarda taqdim etildi. Talabalar o'rtasida o'tkazilgan o'rganish jarayonida modullardan bo'shliqlar aniqlanganda quyidagi tartibda metodik ishlar yo'lga qo'yildi. Dastlab qaysi moduldan qaysi talabaning o'zlashtirishi yaxshiligi va aksincha qaysidir modul bo'yicha qaysi talabaning bo'shliqlari bor bo'lsa aniqlab olindi. So'ngra "Talaba talabaga ustoz – talaba talabaga shogird" tamoyili asosida o'zaro o'rganish muhiti yaratildi. Buning uchun akademik o'zlashtirishi kuchli talaba tegishli modul o'qituvchisiga assistent etib birlashtirildi. Pedagog talabani kerakli o'quv materiallari bilan ta'minlashi taklif etildi. Talaba o'ziga birlashtirilgan talabalarga o'quv resurslardan foydalangan holda hamda qo'shimcha mustaqil qidirib topgan ma'lumotlari asosida o'rgatish ishlarini amalga oshirdi. Talabalarning o'zaro integrativ o'rganish muhiti o'zining tengdoshlar o'rtasidagi kasbiy muzokara jarayoni sifatida namoyon bo'lishi bilan ahamiyatlidir.

Refleksiv-ijtimoiy hamkorlik. Bunda talabalar o'rtasida uchraydigan bir qator ijtimoiy muammolar o'rganiladi. Masalan, talabaning o'zlashtirishi yaxshi, biroq, uning o'zini o'zi namoyon qilishi sust, atrofdagilar bilan muloqotga kirishishda qiyinchiliklar sezadi. Natijada, talaba jarayondan chetda qolgan kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. Bu muammoni hal etish uchun ham integrativ faoliyat muhiti yaratilishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur refleksiv-ijtimoiy hamkorlik asosida talabalarning referent guruhlari shakllantirildi. Mazkur guruh ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezgan talabani mashg'ulotlar jarayonida faollashishga undaydi. Birgalikda kichik-kichik qisqa muddatli loyihalarni amalga oshirish asosida talaba o'zida ijtimoiy fobiyani bartaraf etishga va o'zini o'zi namoyon etishga erishadi.

Shaxsiy potentsiallar integratsiyasi. Bu komponent asosida talabalarning muvaffaqiyatlaridan foydalaniladi. Ularning kasbiy rivojlanishga va albatta, o'ziga xos ijodiy yutuqlari doirasida progressiv taqdimotlar tashkil etildi. Talabalar o'zlarining yutuqlarini namoyon etuvchi taqdimotlar va turli shakllarda loyihalar bajarishdi. Mustaqil bajarilgan ishlarning natijalari tahlil etildi. Bir-birini to'ldiruvchi loyihalar mazmunan va shaklan integratsiyalangan holda jamoaviy loyihalarga

transformatsiyalandi. Natijada, talabalarning davriy forumlari tashkil etildi. Bu jarayon talabalarda quyidagi ko'nikma va malakalar shakllanishiga erishildi: integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o'zini-o'zi anglash, o'z kuchiga ishonish, o'zga insonlar tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni to'g'ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi pedagogik xususiyatlarni kiritish mumkin.

Dissertatsiyaning **“Integrativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari, pedagogik modeli va texnologiyalari xususida so'z yuritilgan.

Ta'lim tizimida integrativ yondashuvlarni qo'llash ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatida samaradorlikka erishish imkoniyatini kengaytiradi. Bunda integratsiyaning turli darajalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning tayanch komponentlari aniqlandi.

Ya'ni *kasbiy rivojlanishda sinergetik trayektoriya*. Bunda talabalar uchun individual kasbiy rivojlanish xaritasi tuziladi. Kasbiy rivojlanish uchun zarur omillar bo'yicha har bir talabalar diagnostikadan o'tadi. Refleksiv-ijtimoiy hamkorlik – talabalar o'rtasida uchraydigan bir qator ijtimoiy muammolar o'rganiladi.

Shaxsiy potentsiallar integratsiyasi. Mazkur komponent asosida talabalarning muvaffaqiyatlaridan foydalanildi. Mustaqil bajarilgan ishlarning natijalari tahlil etildi. Bir-birini to'ldiruvchi loyihalar mazmunan va shaklan integratsiyalangan holda jamoaviy loyihalarga transformatsiyalandi. Natijada, bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning rivojlanganligini baholash mezonlari talabalarning o'quv natijalarini tashxislashga qaratilgan didaktik topshiriqlarning integrativ shakllaridan qisman-izlanishli va ijodiy jarayonda differensial darajalarda foydalanish tajribalari yo'lga qo'yildi.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning quyidagi mexanizmlari optimal sanaladi:

Metodik mahorat darslari. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy bilim, ko'nikma va mahoratlarini rivojlantirish mexanizmlarini joriy etish va ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirishda mahorat mashg'ulotlarini tashkil qilish.


Pedagogik-psixologik diagnostikaga asoslangan seminar treninglar. Kasbiy faoliyatda nazariya va amaliyotni birligini ta'minlashda ta'lim muassasalarida seminar treninglarni muntazam tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa ularni talabalarning davriy diagnostikasi natijalariga asoslangan holda, ya'ni amaliyotda aniqlangan muammolarni bartaraf etishga yo'naltirish talabalarning kasbiy rivojlanishini tizimli ta'minlash imkoniyatini beradi.

O'z ustida ishlashga yo'naltirilgan onlayn kurslar. Kasbiy ehtiyojlarni qanoatlantirishga yo'naltirilgan o'z ustida ishlashning va uzluksiz malaka oshirishning shakllarini mustaqil tanlash va o'zlashtirishga mo'ljallangan kurslar talabalarni muayyan maqsadlar sari intilishga o'rgatadi. Bundan tashqari makon va vaqtdan qat'iy

nazar onlayn tashkil etiluvchi yoki o'rganish mumkin bo'lgan o'quv kurslari hozirgi kunda samarali yo'llardan hisoblanmoqda.

Olib borilgan tadqiqot jarayonida integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish natijalaridan shu narsa aniq bo'ldiki, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning integratsion mazmuni quyidagilarni tashkil etadi (1-rasm).

Integrativ yondashuv maktabgacha va maktab ta'limi tizimida qo'llanilganda ta'lim oluvchilarni dunyoni anglashga, inson jamiyat, fan, atrof-muhit hamda san'at bilan o'rtoqlashishga undaydi. Oliy ta'limda integrativ yondashuv esa, talabalarni kasbiy amaliyotga tez va samarali tayyorlaydi, ta'lim oluvchilar bilan muloqot qilishga o'rgatuvchi modellarni qo'llashga motivatsiyalaydi. Bunda asosiy urg'u faqat ma'lum bilimlarni egallashgagina emas, balki ilmiy, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilishidir. Shuning uchun talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvdan foydalanish modelida ta'limiy muammolarni hamkorlikda yechishga motivatsiyalovchi individual yondashuv, kasbiy yo'nalganlik tamoyillarini faol tadqiqotchilik faoliyatiga tadrijiy uyg'unlashtirishga ustuvorlik berildi. Har bir qo'llanilgan metodik choralar integrativ yondashuvning didaktik ta'minoti bilan uzviy bog'liqlikda joriy etildi. Natijada, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik ta'minoti ijodiy va tahliliy fikrlash dinamikasini ta'minlash, o'zini o'zi tahlil qilish hamda individual qobiliyatlarni rivojlantirishda ijobiy psixologik muhit yaratish vektoriga intensiv ustuvorlik berish asosida takomillashtirildi.



1-rasm. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning integratsion mazmuni

Bo'lajak tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi modullarni o'zlashtirish jarayonida aniq vazifalarni amaliy yo'nalgan holda bajarishda hamda amaliy faoliyatda kasbiy vazifalarni hal qilishda namoyon bo'ladi. Shu bilan bog'liq ravishda biz integratsion yondashuvga asoslangan pedagogik modelini ishlab chiqdik (2-rasm). Model tarkibidagi har bir blok kasbiy kompetensiyani namoyon etuvchi nazariy va amaliy integratsiyalashgan kontekstni hisobga olishi muhimdir. Kasbiy

kompetensiyaning tavsifi shundan iboratki, u qadriyatlar bilan uzviylikda, ya'ni ushbu faoliyat turiga chuqur shaxsiy qiziqish sharoitida o'zini namoyon qiladi.

Talaba shaxsida kasb malakalarini qaror toptirish, individual yondashuv – bo'lajak tarbiyachilarda integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatdan o'rgatish, ularni pedagogik bilimlar bilan qurollantirish, pedagogik-psixologik sog'lom muhitni yaratishga alohida yondashuvni tashkil qilish katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin.

Yuqoridagi tamoyillarga asoslangan holda taklif etilgan modelning mazmunli komponenti shakllantirildi. Mazkur komponent maqsadi talaba-yoshlarning jamiyatdagi o'rni va vazifalarini oydinlashtirgan holda ularni kasbiy faoliyatga maqsadli tayyorlashdir. Shuningdek, bo'lajak mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik faoliyatga jalb etishning faol yo'nalishlarini tanlash va amalga oshirish vazifalarini ko'zda tutadi.

Talabalarni kasbiy amaliyotga tayyorlashda illyustrativ, qisman-izlanishli metodlar hamda mantiqiy zanjir texnologiyasi, evristik o'yin topshiriqlaridan foydalanildi.

Ilyustrativ metodlar asosida talabalarga kasbiy faoliyatga oid bilimlar taqdim etildi va ularga berilgan ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish topshiriqlari berildi.

Qisman-izlanishli metodlar asosida kasbiy keyslar taqdim etildi. Talabalar muammolarni yechish bo'yicha o'zlarining yakka va jamoaviy takliflarini tayyorladilar.

Evristik o'yin-topshiriqlari pedagogik faoliyatni modellashtirishga o'rgatuvchi kasbiy mashqlardan tashkil topdi. Natijada, talabalar amaliy mashg'ulotlarda kasbiy faoliyatga oid turli harakatlarni amalga oshirishga erishdilar va o'zini baholash orqali bo'shliqlarini aniqladilar.

Modelning vositalari sifatida axboriy-metodik ta'minot, rivojlantiruvchi dasturlar, interaktiv dasturiy vositalar va boshqalar qo'llanildi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga mo'ljallangan model o'zida an'anaviy va innovatsion yondashuvlarni mujassam etgan. Natijada, integrativ yondashuv orqali talabalarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning tizimli rivojlanishi va kompetensiya darajasida takomillashuviga erishishning optimal yo'llarini aniqlab berish imkoniyatini berdi.

Bo'lajak tarbiyachilar tarbiyachilik mahoratiga zamin yaratuvchi quyidagi kasbiy harakatlarni bilishi va uddalashi kerak:

har qanday pedagogik vaziyatlarda ta'lim oluvchining ichki va tashqi dunyosini to'g'ri tushunishi va anglashi zarur;

pedagogik vaziyatlarni to'g'ri idrok qilish uchun diqqatni jamlash;

ta'lim oluvchilarga ishonch va talabchanlik;

tarbiyaviy vaziyatni har tomonlama puxta baholay olish;


turli pedagogik taktlardan vaziyatga mos va samaralisini ajrata olish;

